

ASHKENAZ VA SEFARD YAHUDIYLARI JAMOLARIDA DAFN MAROSIMLARINING QIYOSIY TAHLILI

Jabborov Qaxramon Jaxongir o'g'li,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Xodimlar bo'limi muhandisi

Annotatsiya: *Dinlalararo muloqotni ta'minlashda dinshunoslar tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan ishlardan eng asosiylari bu albatta dinlardagi an'ana va marosimlarni qiyosiy tahlil qilish, ularda insonparvarlikka yo'g'rilgan g'oyalarni tadqiq qilish, qiyosiy tadqiqotlar olib borish kabi ishlarni bajarish eng asosiy vazifalardan biri bo'lib turibdi. Ushbu maqolada yahudiylar dinining tarixiy ildizlarini yanada chuqurroq tahlil qilish, muqaddas manbalaridagi g'oyalarni, bu dindagi dafn marosimlarini qiyosiy asosda o'rganish haqida ma'lumot beradi.*

Kalit so'zlar: ashkenaz, sefard, dafn marosimi, keriya, shiva, tasbih, sheloshim, kaddish, ketuba, Buxoro yahudiylari.

A COMPARATIVE ANALYSIS OF FUNERAL RITUALS IN ASHKENAZI AND SEPHARDIC JEWS

Annotation: *The most important work in ensuring interreligious dialogue is certainly the comparative analysis of rituals in religions. This article provides an analysis of the history of Judaism, a study of the ideas in its books and the burial ritual.*

Keywords: ashkenazi, sephard, funeral ritual, keriya, shiva, tasbih, sheloshim, kaddish, ketubah, Jews of Bukhara.

Ashkenaz va sefard yahudiy jamoalari yahudiylarning ikkita alohida submadaniyatini ifodalaydi. Bir xil asosiy e'tiqoga ega bo'lishlari bilan bir qatorda, madaniyat va amaliyotda ba'zi farqlar mavjud. Bu kabi farqlar qachondan beri mavjud ekanligi haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Sefard yahudiylarining e'tiqodlari asosan pravoslav yahudiy jamoalariga yaqin hisoblanadi. Masalan Pesax bayrami bilan bog'liq amaliyotlarni misol sifatida keltirish mumkin. Sefard yahudiy jamoalari bu bayramda guruch, makkajo'xori, yeryong'oq va loviya iste'mol qilishlari mumkin. Ashkenaz yahudiylari esa bu kabi mahsulotlardan Pesaxda umuman foydalanishmaydi. Tarixiy jihatdan, sefard yahudiylari ashkenaz yahudiylariga qaraganda yahudiy bo'lmagan mahalliy madaniyatga ko'proq integratsiyalashgan. Ashkenaz yahudiylari istiqomat qilgan rivojlangan nasroniy davlatlarida nasroniylar va yahudiylar o'rtasida ziddiyatlar

kelib chiqqan. Shu sababli, ular mahalliy aholi vakillaridan muloqotda ajralib qolishganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Sefard yahudiylariga rivojlangan islomiy mamlakatlarda segregatsiya va to'siqlar kam edi. Shu sababli sefard yahudiylarining tafakkuri va madaniyatiga arab va yunon falsafasi va ilmi kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bir necha xil modernizatsiya harakatlari parallel ravishda rivojlandi. Bu harakatlar turlicha talqin qilingan.

Dafn marosimining aniq tartibi joydan joyga va jamoadan jamoaga farq qiladi. Yahudiylar hamjamiyati xilma-xil, ammo ularning dafn marosimlari farqlardan ko'ra ko'proq o'xshashliklarga ega. Sefarad yahudiylarining ko'p urf-odatlarini ashkenaz yahudiylari urf-odatlariga qaraganda Talmud davriga yaqinroqdir⁶. Dafn marosimi barcha yahudiy jamoalari uchun muhim hisoblanib, umumiy tartibga ega bo'lsa ham, ammo, farqlar asosan amaliyotda ko'rinadi. Dafn marosimlaridagi asosiy farqlar, asosan, sefard va ashkenaz yahudiy jamoalarning quyidagi amaliyotlarida kuzatiladi:

- Keriya odatida. Bu marhumning yaqinlari tomonidan amalga oshiriladigan kiyimni bir qismini yirtish odatidir. Keriya dafn marosimining maqsadi inson yaqinlaridan biridan ajralganligi, hech qachon qaytib kelmasligini ifodalashdir⁷. Bu jarayon sefard yahudiylarida marhumni dafn qilib bo'lgandan so'ng qabristonning o'zida yoki uyga kelgach amalga oshiriladi. Ashkenaz yahudiylarida esa, bu odat dafn marosimining boshida qo'llaniladi;

- Dafn marosimida marhumning ismining tilga olinishida. Dafn marosimida marhumni ashkenaz yahudiylarida otasining ismi bilan, sefard yahudiylarida esa onasining ismi bilan tilga olish odati mavjud;

- Tasbih odatida. Bu odat dafn marosimida marhum haqida maqtovlarni nazarda tutadi. Sefard yahudiy jamoalarida marhum haqida maqtovlarni asosan qabr atrofida aytish odat tusiga kirgan. Ashkenaz yahudiylarida esa maqtovlar aytilishida vaqt va makon tanlanmaydi. Sinagogada ham, qabr atrofida ham maqtovlar aytilishi mumkin;

- Shiva motam davridagi amaliyotlarda. Shiva motam davrida marhumning yaqinlari uchun ko'plab an'anaviy urf-odatlar va cheklovlar mavjud bo'ladi. Masalan, shiva davrida motam xonadonida, marhumni yodga olish maqsadida dasturxon atrofida yaqinlari va do'stlari yig'ilishadi. Bu kabi jarayonlar, asosan, sefard yahudiylarining ba'zi jamoalarida uchraydi⁸. Ashkenaz yahudiylari esa motam xonadonida taom iste'mol qilmaydilar. Shuningdek, ashkenaz yahudiy jamoalaridagi motam tutuvchilar shiva

⁶ Ginio A. M. Between Sepharad and Jerusalem. – Boston: Brill, 2014 –P. 267.

⁷ Popovsky M. Jewish Ritual, Reality and Response at the End of Life. – North Carolina: Duke Institute on Care at the End of Life, 2007. –P. 33.

⁸ O'sha asar –P. 40.

davrida xonadonda past kursilardan foydalanishadi. Sefard yahudiylari esa motam vaqtda pol yostiqlaridan foydalanishni afzal biladilar⁹;

— Sheloshim motam davridagi amaliyotlarda. Shivadan keyingi bu motam davrida ham ba'zi cheklovlar saqlanib qoladi¹⁰. Sefard yahudiylari sheloshim motam davrida yuvinishda issiq suvdan foydalanishadi¹¹. Ashkenaz yahudiylari esa faqat sovuq suvdan foydalanishni davom ettiradi;

— Kaddish ibodatida. Kaddish – bu Xudoga shukronalik duosi bo'lib, yahudiylarning an'analariga ko'ra, kaddish ibodati ruhni do'zax hukmidan qutqarib, jannatga ko'tarish uchun juda muhim hisoblanadi. O'lgan inson uchun kaddish o'qish muddati ham farq qiladi. Sefard yahudiylari odatiga ko'ra kaddish duosi marhumni vafotidan boshlab 12 oy davomida davom etadi¹². Ashkenaz yahudiylariga ko'ra bu odat 11 oy davom etadi. Shuningdek, kaddish ibodati bilan bog'liq farqlardan biri sefard va ashkenaz yahudiylari tomonidan o'qiladigan kaddishlar adadidadir. Sefard yahudiylari ashkenaz yahudiy jamoalaridan farqli o'laroq, kaddishlarda Hayot, Sheba, Ieshua, Nechama, Shizba, Refua, Gula va Sila kabi so'zlardan foydalanishadi.

Shuningdek, sefard yahudiy jamoalarida shivaning yettinchi ya'ni oxirgi kunida motam tutuvchilar motamning birinchi bosqichini tugatish uchun ma'lum marosimlarni bajaradilar. Ko'plab sefard jamoalarida, maxsus taom tayyorlanib, yana bir maqtoqlar tashkil etiladi. Bu mishmara deb ataladi va sefard yahudiylari tomonidan shloshimda, birinchi yahrtzeit (o'lim yilligi)da va undan keyingi har bir yahrtzeitdan keyin amalga oshiriladi¹³. Shivaning har kuni, ba'zan kuniga ikki marta qabrni ziyorat qilish ko'plab sefard jamoalarida odatiy hol hisoblandi. Ko'pgina sefard jamoalari dafn maraosimida ayollarga qabristonga tashrif buyurishni taqiqlaydi. Bu, shuningdek, ba'zi jamoalarda otasidan ayrilgan erkaklar uchun ham amal qiladi.

O'rta Osiyo hududlarida istiqomat qilgan yahudiylar asosan ashkenaz va sefard jamoalari vakillari bo'lishgan. Tarixda buxoro yahudiylari nomi bilan mashhur bo'lgan yahudiylarni sefard yahudiy jamoalari tashkil etgan. Buxoro yahudiylari orasida o'ziga xos marosim va urf-odatlar mavjud bo'lgan. Masalan, har bir mahalla ayollarining boshida saylov yo'li bilan ishboshilikka tayinlangan "Kayvoniy" nomli bir ayol turgan. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lgan:

⁹ **Bokser B. Z. Life and Death, Encyclopedia Judaica. – New York: Macmillan Reference, 2007. –P. 91.**

¹⁰ O'sha asar –P. 93.

¹¹ Popovsky M. Jewish Ritual, Reality and Response at the End of Life. – North Carolina: Duke Institute on Care at the End of Life, 2007. –P. 41.

¹² O'sha asar –P. 39.

¹³ Popovsky M. Jewish Ritual, Reality and Response at the End of Life. – North Carolina: Duke Institute on Care at the End of Life, 2007. –P. 40.

- ayollar orasida yuzaga chiqqan mojarolarda hakamlilik qilish;
- to'y marosimlarining ayollar bilan bog'liq qismlarini tashkillashtirish;
- turmush qurish bilan bog'liq masalalarda kelinlarga tushuncha va tavsiyalar berish;
- aza marosimlarida yig'ichilarning ishlarini tashkillashtirish¹⁴.

Buxoro yahudiylarining dafn etilgandan keyingi yetti kunlik shiva motam marosimlari butun dunyodagi yahudiylarda bo'lgani kabi o'tkazilgan. Biroq, boshqalardan farqli o'laroq mahalliy yushvo odati mavjud bo'lgan. Bu maqtoqlar, motam qo'shiqlari va ibodatlar bilan bo'g'liq bo'lgan ramziy taomlardan iborat maxsus amaliyot hisoblangan. Bu marosim shiva motam haftasida har kuni kechqurun, undan keyingi oyda har hafta odam vafot etgan kuni (masalan, har chorshanba) o'tkazilgan. Bundan tashqari, motamning birinchi yili davomida yushvo har oyda inson vafot etgan sanada (masalan, har oyning beshinchi kuni) o'tkazilib kelingan. Bu marosim uyda marhumning oila a'zolari va yaqinlari davrasida o'tkazilgan. Bundan tashqari, motam yili oxirida yana bir xotira marasimi o'tkaziladi. Birinchi yil davomida marhumning xotirasiga bag'ishlangan xotiralar soni 21 taga yetadi. Marosimlar odatda marhumni uyida o'tkaziladi¹⁵. Xotira marosimi "minxa" va "ma'ariv" (tushki va kechki ibodatlar) bilan boshlanib, unda Zohardan parchalar o'qiladi. Marhumning sharafiga "hashkavah" (rohat ayla) shaklida duolar o'qiladi¹⁶. Bundan tashqari buxoro yahudiylari orasida "sobgororon" deb nomlangan xotira va azadan chiqish marosimi ham mavjud bo'lgan. Sobgororon - inson vafotining birinchi yili tugashi oldidan o'tkaziladigan marosim. Bu marosimda faqat ayollar ishtirok etgan. Marosimda taom iste'mol qilinib, duolar qilingan. Bundan tashqari, marhumning yaqin ayol qarindoshlari motamni to'xtatish belgisi sifatida yuzlaridagi tuklarini tozalaydilar¹⁷.

¹⁴ Zand M. Bukhara Jews. Encyclopedia Iranica. Vol.IV. Fac.5. – London: –P. 535.

¹⁵ Cooper A. Feasting, Memorializing, Praying, and Remaining Jewish in the Soviet Union. The Case of The Bukharan Jews. – Bloomington: Jewish Life After The USSR, 2003. –P. 144-145.

¹⁶ Arik D. Buhara yahudileri. – Ankara: Ktibci, 2005. –P. 254-255.

¹⁷ Cooper A. Feasting, Memorializing, Praying, and Remaining Jewish in the Soviet Union. The Case of The Bukharan Jews. – Bloomington: Jewish Life After The USSR, 2003. –P. 380.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Black C.E. The Dynamics of Modernization. – New York: Harper and Row, 1967. – 211 p.
2. Popovsky M. Jewish Ritual, Reality and Response at the End of Life. – North Carolina: Duke Institute on Care at the End of Life, 2007. – 87 p.
3. Peter Y.M. Sephardic Jewry and Mizrahi Jews. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – 289 p.
4. Zand M. Bukhara Jews. Encyclopedia Iranica. Vol.IV. Fac.5. – London: –P. 535.

